


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Dastlabki maʼlumotlar

2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 051,9** mlrd. soʻnni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **10,0** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **901,6** mlrd. soʻnni (**21,9** % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 150,3** mlrd. soʻnni (**7,0** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **642,7** mlrd. soʻnni (**30,1** % ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda




Uyushmagan savdo, mlrd. soʻm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

UMUMIY MA’LUMOT

2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 051,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **90,0 %** ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasida deyarli (Gurlan va Xiva tumanlaridan tashqari) barcha shahar va tumanlarda kamayish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **17,8 %** to‘g‘ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri **36,4 %** ulush bilan **1 839,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Xiva tumani **1,9 %** ulush bilan **95,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-avgust



Viloyat	
Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2019-yil yanvar-avgust	
2020-yil Yanvar-avgust	


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 4 150,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,0 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **82,2 %** ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqa'l'a (99,9 %), Yangibozor (98,7 %), Gurlan (98,1 %), Yangiariq (97,8 %) va Xiva (97,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarda chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, yuqori o'sish sur 'atlari Gurlan (106,0 %) va Xiva (101,6%) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	5 051 904,3	90,0	901 611,1	78,1	4 150 293,2	93,0
shaharlar:						
Urganch	1 839 328,5	86,3	748 556,9	78,0	1 090 771,6	93,1
Xiva	183 268,7	97,7	14 728,7	76,7	168 540,1	100,1
tumanlar:						
Bog'ot	257 378,8	75,8	14 059,9	76,3	243 318,8	75,8
Gurlan	381 736,1	106,0	7 191,8	109,9	374 544,4	106,0
Qo'shko'pir	267 782,9	97,5	9 795,5	3,7 m.	257 987,4	94,9
Urganch	472 196,4	96,8	34 808,3	71,3	437 388,2	99,7
Hazorasp	479 966,9	96,2	13 765,4	95,4	466 201,5	96,2
Tuproqqal'a	113 844,8	89,9	120,4	-	113 724,3	89,8
Xonqa	296 617,2	83,2	35 346,1	55,9	261 271,1	89,1
Xiva	95 211,2	101,6	2 660,7	3,2 m.	92 550,5	99,6
Shovot	321 992,8	80,9	14 139,2	104,2	307 853,5	80,1
Yangiariq	224 490,6	95,1	4 945,6	78,7	219 545,0	95,5
Yangibozor	118 089,3	94,8	1 492,5	3,5 m.	116 596,8	93,9

**XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI**
2020-yil yanvar-avgust

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **21,9 %** ga kamaydi va **901,6 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 150,3 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,2 %** ni tashkil etdi.


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (99,9 %), Yangibozor (98,7 %), Gurlan (98,1 %), Yangiariq (97,8 %) va Xiva (97,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (40,7 %), Xonqa tumani (11,9 %), Xiva shahri (8,0 %) va Urganch tumani (7,4 %) da kuzatildi.



2020-yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 699,4** ming so'm (2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **11,5 %** ga kamaydi) ni tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Hazorasp (121,5 %), Gurlan (104,5 %) tumanlarida qayd etildi. Bog'ot (74,5 %), Shovot (79,6 %), Xonqa (82,0 %) tumanlarida eng quyi ko'rsatkichlar kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (12 755,4 ming so'm), Gurlan (2 577,6 ming so'm) va Hazorasp (2 481,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-avgust

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda




Uyushmagan
savdo


Dehqon
bozorlari

Chorva
bozorlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-avgust

2020-yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **392,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **249,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagani holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	642,7	69,9	392,8	86,3	249,9	53,8
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	135,3	71,4	83,6	133,1	51,7	40,8
Xiva	14,1	95,6	14,1	95,6	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog 'ot	89,7	55,8	38,6	62,1	51,1	51,8
Gurlan	50,8	60,8	34,2	82,1	16,5	39,5
Qo'shko'pir	62,9	82,0	45,8	89,4	17,1	67,1
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	63,0	85,0	43,1	69,9	19,9	159,1
Tuproqqal'a	5,3	-	4,7	-	0,6	-
Xonqa	50,5	71,5	41,7	74,3	8,8	60,9
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	110,5	61,9	39,4	73,3	71,2	57,0
Yangiariq	35,5	88,5	26,6	97,7	9,2	69,7
Yangibozor	24,8	79,8	21,2	88,3	3,6	51,1



Tuzlamalar

2,0
mlrd. soʻm



Yangi uzilgan qishloq
xoʼjaligi mahsulotlari

213,9
mlrd. soʻm



Quritilgan qishloq
xoʼjaligi mahsulotlari
(yongʼoq, bodom, pista va
boshqalarni qoʼshgan holda)

10,4
mlrd. soʻm



38,5
mlrd. soʻm

Non va non
mahsulotlari



7,4
mlrd. soʻm

2,8
mlrd. soʻm



Sut va sut
mahsulotlari



Tuxum

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, noʼxat, guruch va
boshqalar)

55,3
mlrd. soʻm

14,5
mlrd. soʻm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

11,4
mlrd. soʻm



Gullar, oʼsimlik va nihol
koʼchatlari (manzarali va
qishloq xoʼjaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2,9
mlrd. soʻm



Ziravorlar

33,7
mlrd. soʻm



Tovuq goʼshti

2020-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xoʼjaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi oʼtkazildi. Kuzatuv natijalariga koʼra savdo aylanmasi hajmi **392,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlari savdosiga (**213,9** mlrd. soʻm) toʼgʼri keldi.


2020-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarda joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **249,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagи qora mollar savdosi **233,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **15,2** mlrd. so'mni, otlar **0,1** mlrd. so'mni, parrandalar **1,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,1 % ni tashkil etib, **56,5** mlrd. so'mga yetdi va 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **27,1** % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **88,5** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'sish sur'atlari, foizda**



**XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020-yil yanvar-avgust**


	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	56,5	72,9	4,1	144,8	52,4	70,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	24,5	66,4	1,1	46,8	23,3	67,8
Xiva	3,2	62,5	-	-	3,2	62,5
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	1,8	71,5	-	-	1,8	71,5
Gurlan	1,5	69,7	-	-	1,5	69,7
Qo'shko'pir	0,9	66,3	-	-	0,9	66,3
Urganch	10,5	76,3	0,4	90,9	10,1	75,9
Hazorasp	3,2	70,6	-	-	3,2	70,6
Tuproqqa'l'a	0,7	55,6	-	-	0,7	55,6
Xonqa	2,0	76,5	-	-	2,0	76,5
Xiva	1,8	80,1	-	-	1,8	80,1
Shovot	4,6	167,2	2,6	-	2,0	72,8
Yangiariq	0,7	81,5	-	-	0,7	81,5
Yangibozor	1,1	73,0	-	-	1,1	73,0

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



2020-yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi

1 358,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **15,2 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **432,5 mlrd. so'mni** (**24,7 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **926,2 mlrd. so'mni** (**9,9 %** ga kamayish) tashkil etdi.


Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo
1 358,7 mlrd. so'm, 100 %

Yirik korxonalar
432,5 mlrd. so'm,
31,8 %

Mikrofirma va kichik korxonalar
926,2 mlrd. so'm,
68,2 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Yangibozor (5,2 m.), Xonqa (5,1 m.) va Gurlan tumanlarida (2,8 m.) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'atlari Tuproqqal'a (6,2 m.), Xiva (156,5 %) va Yangiariq (125,8 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 358 699,6	84,8	432 487,3	75,3	926 212,3	90,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	658 516,0	92,8	201 626,1	116,7	456 889,9	85,0
Xiva	51 351,3	98,4	431,2	35,4	50 920,1	99,9
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	23 270,3	94,5	6,5	93,9	23 263,8	94,5
Gurlan	25 666,1	109,0	59,0	2,8 m.	25 607,0	108,8
Qo'shko'pir	12 203,1	79,2	22,9	149,9	12 180,2	79,1
Urganch	291 226,9	51,7	151 555,7	38,0	139 671,2	84,5
Hazorasp	12 310,5	84,8	19,8	120,9	12 290,7	84,7
Tuproqqal'a	80 572,8	6,2 m.	68 350,0	-	12 222,8	94,8
Xonqa	68 269,2	107,9	10 254,9	5,1 m.	58 014,3	94,7
Xiva	64 507,5	156,5	91,6	2,1 m.	64 415,9	156,4
Shovot	22 133,8	79,2	16,8	16,6	22 116,9	79,4
Yangiariq	18 570,2	125,8	29,3	2,3 m.	18 541,0	125
Yangibozor	30 102,0	77,9	23,7	5,2 m.	30 078,3	77



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **926,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **9,9 %** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **68,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Bog'ot (100,0 %), Xiva (99,9 %), Shovot (99,9 %), Yangibozor (99,9 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Tuproqqa'l'a (15,2 %), Urganch (48,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 227-78-85**

Yirik korxonalar	Mikrofirma va kichik korxonalar	2019-yil Yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust